

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KORXONALARNING
MOLIYAVIY-KREDIT MEXANIZMINI TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY
INVESTITSİYALARNI JALB QILISHGA TA‘SIRI**

Mamatkulova Nadira Makkamovna
TAQU, “Menejment” kafedrasi dotsenti
2025nodi@gmail.com


Annotatsiya. Maqolada korxonalarining moliya-kredit mexanizmini raqamlashtirish jarayonining to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta‘siri tahlil qilingan. Korporativ moliyani raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari —moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, katta ma‘lumotlar va blokcheyn texnologiyalari qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Xalqaro hisobotlar va ilmiy manbalar asosida tizimli tahlil o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish korxonalar moliyaviy operatsiyalarining shaffofligini oshiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi. Raqamlashtirishdagi to‘siqlar aniqlanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, moliya-kredit mexanizmi, korxonalar, shaffoflik, investitsion muhit, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar.

Аннотация. Статья посвящена анализу влияния цифровой трансформации финансово-кредитного механизма предприятий на привлечение прямых иностранных инвестиций. Рассматриваются ключевые направления цифровизации корпоративных финансов, включая автоматизацию финансовых процессов, использование больших данных и технологий распределённых реестров. Исследование основано на системном анализе международных отчётов и научных публикаций. Показано, что цифровая трансформация способствует повышению прозрачности финансовых операций, снижению транзакционных издержек и усилению инвестиционной привлекательности предприятий. Выделены барьеры цифровизации и предложены рекомендации по совершенствованию финансово-кредитного механизма предприятий для увеличения притока прямых иностранных инвестиций.

Ключевые слова: цифровая трансформация, финансово-кредитный механизм, предприятие, прозрачность, инвестиционный климат, прямые иностранные инвестиции.

Abstract. The article examines how the digital transformation of enterprises' financial and credit mechanisms affects the attraction of foreign direct investment. The study analyses key areas of financial digitalization, including financial automation, big data analytics, and distributed ledger technologies. Based on international reports and academic literature, the research demonstrates that digital transformation increases financial transparency, reduces transaction costs, and strengthens the investment attractiveness of enterprises. Barriers to digital adoption are identified, and recommendations to improve




enterprises' financial-credit systems for boosting foreign direct investment inflows are provided.

Keywords: *digital transformation, financial-credit mechanism, enterprise, transparency, investment climate, foreign direct investment.*


XXI asr iqtisodiyotining yetakchi tamoyillaridan biri bu raqamli transformatsiyadir. Jahonda raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarni, xususan moliyaviy boshqaruvni tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli moliya bozorlari, fintech xizmatlari, blockchain, sun'iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari va real vaqt monitoring platformalari eski an'anaviy mexanizmlardan ustun bo'lib bormoqda. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi asosida bank tizimi, budjet jarayonlari, soliq boshqaruvi, investitsiya muhitini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Natijada korxonalar o'z moliyaviy-kredit jarayonlarini optimallashtirish, shaffoflashtirish va tezkorlashtirish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar har bir davlat iqtisodiyotining barqaror o'sishi uchun muhim hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalaroqimini jalb qilishda korxonalar moliyaviy-kredit tizimining samaradorligi, moliyaviy ma'lumotlarning ishonchliligi, risklarning pastligi va tranzaksion xarajatlar darajasi muhim omil hisoblanadi. UNCTAD (Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi) va OECD (iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy investorlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar obyektlari sifatida ko'rib chiqilayotgan kompaniyalarning shaffoflik darajasi, avtomatlashtirilgan moliyaviy jarayonlari, raqamli xavfsizligi va texnologik yetukligiga alohida e'tibor qaratadi.



Raqamli transformatsiyaning moliyaviy jarayonlarda qo'llanilishi korxonalarining strategik boshqaruv tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Masalan, bulutli buxgalteriya tizimlari real vaqt rejimida ma'lumotlar almashuviga imkon berib, investorlar uchun yuqori darajada shaffoflikni ta'minlaydi. Onlayn kreditlash tizimlari kredit olish jarayonini soddalashtirib, korxonalariga arzonroq moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini beradi. Sun'iy intellektga asoslangan risk-menejment tizimlari esa investorlar uchun eng muhim ko'rsatkich bo'lgan xavflarni boshqarish sifatini oshiradi. Bunday tizimlar kredit tarixini chuqur tahlil qilish, moliyaviy oqimlarni prognozlash va investitsion strategiyalarni optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy avtomatlashtirish darajasi yuqori bo'lgan korxonalar o'zining operatsion xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga erishadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy jarayonlarni raqamlashtirgan kompaniyalarda xarajatlar o'rtacha 20–25 foizga qisqaradi, bu esa ularga investitsiyalarni jalb qilishda ustunlik beradi. Raqamli moliyaviy tizimlar yordamida transchegaraviy to'lovlar tezlashadi, xalqaro operatsiyalar tannarxi kamayadi va korxonaning global bozorga integratsiyalashuvi osonlashadi.


Raqamli texnologiyalar asosidagi katta ma'lumotlar tahlili kompaniyalar uchun strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Investorlar esa bunday



tizimlar mavjud bo'lgan kompaniyalarni korporativ boshqaruv madaniyati yetuk deb hisoblab, ularni xavfi past va istiqbollari keng bo'lgan obyekt sifatida qabul qiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, malakali IT mutaxassislar tanqisligi, raqamli xavflarning kuchayishi va boshlang'ich investitsiya xarajatlarining yuqoriligi korxonalar uchun sezilarli to'siq bo'lmoqda. Kiberxavfsizlik masalalarining zaifligi xorijiy investorlar tomonidan eng muhim xavf sifatida qayd etiladi. Shu sababli korxonalarda ma'lumotlarni himoyalash tizimlarini mustahkamlash, xalqaro standartlarga mos ravishda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish talab etiladi.

O'zbekiston korxonalarida raqamli moliyaviy hisob-kitob tizimlari, elektron to'lovlar, onlayn bank xizmatlari, big data asosidagi kredit skoringi, moliyaviy hisobotlarni raqamli auditdan o'tkazish amaliyotining kengayishi investitsion qaror qabul qilish jarayonini yanada aniq va tezkor qilishga yordam bermoqda. Bu esa investorlar uchun bozor ishtirokchilarining holatini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini berib, investitsion xavflarni kamaytiradi. Shuningdek, kreditlash jarayonlarining avtomatlashtirilishi va byurokratik to'siqlarning qisqarishi korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, ularni xorijiy kapital bilan hamkorlik qilishga tayyor holatga keltiradi.

Raqamli transformatsiya investorlar uchun eng muhim omil bo'lgan shaffoflik darajasini sezilarli oshirmoqda. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida raqamli formatda yuritish, soliq va bojxona ma'lumotlarining yagona tizimga integratsiyalashuvi, "One-Stop Shop" tamoyillari asosida investitsion xizmatlarning raqamlashtirilishi investorlar uchun institutsional ishonchni kuchaytirmoqda. Korxonalarining raqamli kredit reytingi tizimlari kapitalga bo'lgan ehtiyojni to'g'ri baholashga yordam berib, chet ellik investorlarning mahalliy bozorga kirish qaroriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar asosida shakllangan moliyaviy ekotizim - fintech xizmatlari, masofaviy bank operatsiyalari, elektron kafolatlar asosidagi tranzaksiyalar investitsiya faoliyatining xavfsizligini oshiradi. Bu jarayonlar moliyaviy oqimlarning kuzatuvchanligini ta'minlab, korrupsion xatarlarni kamaytiradi va investorlar uchun qulay muhit yaratadi. O'zbekistonning investitsion siyosati va raqamli iqtisodiyot strategiyasi ham aynan korxonalar faoliyatini zamonaviy moliyaviy infratuzilmaga moslashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu bevosita to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish jarayonini rag'batlantiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida korxonalar moliyaviy-kredit mexanizmining takomillashuvi investorlarga bozorning real holati, korxonaning moliyaviy salohiyati, risklar va kutilayotgan rentabellik darajasini aniq baholash imkonini beradi. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqligi, barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli moliyaviy tizimlarning rivoji tufayli korxonalar xalqaro kapital bozorlari bilan integratsiyalashib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada, raqamli transformatsiya nafaqat korxonalar uchun ichki boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki butun iqtisodiyot

miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini jalb etishda strategik ustunlik yaratadi. Investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida korxonalar ichki nazorat tizimini takomillashtirishi, raqamli hisobot standartlarini joriy qilishi, xodimlarning raqamli moliyaviy boshqaruv bo'yicha malakasini oshirishi zarur. Raqamli transformatsiya korxonaning tashqi bozorda ishonchlik darajasini kuchaytiradi, moliyaviy operatsiyalarning tezkorligini ta'minlaydi va investorlar uchun xavfsizlik kafolatlarini oshiradi. Bularning barchasi korxonaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli ustunlik yaratadi.

Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun korxonalarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- ichki nazorat va raqamli hisobot tizimini rivojlantirish;
- raqamli rivojlanish strategiyalarini shakllantirish;
- raqamli moliyaviy menejment bo'yicha xodimlar kompetensiyasini oshirish.

Korxonalarining moliyaviy-kredit mexanizmini raqamli transformatsiya qilish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning eng muhim omillaridan biridir. Bu jarayon shaffoflikni oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, risklarni boshqarishni yaxshilaydi va xorijiy investorlar ishonchini kuchaytiradi. Raqamli vositalarni faol joriy qilayotgan korxonalar yuqori barqarorlik, samaradorlik va investitsiyaviy jozibadorlikni namoyish etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi PQ-162-sonli "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi PQ-4699-sonli "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
5. UNCTAD. World Investment Report 2025. Geneva: United Nations, 2025.